

AZIM SUYUN QAYIRMALARI POETIKASI

Shohruh Uralovich TURSUMURODOV

tayanch doktorant

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

O'zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

Maqolada Azim Suyun ijodining evolyutsiyasida “qayirma” eksperimental izlanishining shakllanishi, uning individual uslub darajasiga ko'tarilishi, sharq hikmatlari darajasida kamol topishi borasida mulohaza yuritilgan. Shuningdek, shoir “qayirma”laridagi undalmali murojaat, ramka unsuri, qat'iy qolipli shakliy ko'rinishi, qofiyalanish tizimi kabilar tahlil etilgan.

Tayanch so'zlar: qayirma, ijodiylik, eksperimental shakl, nido, ramka unsuri, hikmat, vokativlik.

ПОЭТИКА «КАЙИРМА» АЗИМА СУЮНА

Шохрух Уралович ТУРСУНМУРОДОВ

докторант

Ташкентский государственный университет

узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Тошкент, Узбекистан

Аннотация

В статье рассматривается процесс формирования экспериментальной поэтической формы «кайирма» в творческой эволюции Азима Суюна, её развитие до уровня индивидуального авторского стиля и совершенствование до уровня восточной мудрости. Кроме того, анализируются такие особенности «кайирма» поэта, как обращение с использованием вокативных конструкций, рамочный композиционный элемент, строгая каноническая форма и система рифмовки.

Ключевые слова: кайирма, творческое начало, экспериментальная форма, восклицание, рамочный элемент, мудрость, вокативность.

Ijod ahli muayyan darajada tajribaga erishgach, ko'rgan-bilganlari asosida dunyoga kelgan falsafiy hikmatlarini aforizmlar yoki kichik hajmli qaydlarda aks ettirishadilar. Misol tariqasida, Alisher Navoiyning “Favoyit ul-kibar”, ya'ni “Keksalik foydalari” nomli devonidan o'rin olgan sakson oltita fardda, Abayning “Naqliya so'zlar” asari va Asqad Muxtorning “Tundaliklar” asari, O'tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” kabi asarlarida ana shunday falsafiylik, ijodiy tajriba kamoloti bo'y ko'rsatganini anglashimiz

mumkin. Azim Suyun ham ayni ijodiy balog‘otga erishgach, “qayirma”lar yoza boshladi. Shoirning “qayirma”lari haqida dastlab Abdulla Oripov fikr bildirib, uni mustaqil janr sifatida ta’kidlagan, so‘ngra Q.Yo‘ldoshev Azim Suyunning shaxsiy ijodiy laboratoriyasi mahsuli bo‘lgan “qayirma”ni so‘zning o‘zagidagi “qayishlik” bilan bog‘lab, ijodiy barkamollikdagi “puxtalik”, “pishqlik” orqali izohlaydi va uni : “Hikmat va badiiyat uyg‘unligi”, – deya baholaydi. Bu ikki shoir va olimning qarashlarida nisbatan subyektivlik ustunlik qilgandek taassurot qoldiradi. Azim Suyun “qayirma”lari adabiyotshunos D.Quronov va tadqiqotchilar – Q.Mamiraliyev, D.Toshevalar tomonidan ham turli aspektlarda tadqiq etilgan. Ammo o‘zining to‘laqonli poetik bahosini topganicha yo‘q. Negaki yuqorida nomlari qayd etilgan shoir, olim va tadqiqotchilar, asosan, shoirning she‘riy “qayirma”lari haqida mulohaza bildirishgan. Biz ulardan farqli ravishda Azim Suyunning she‘riy va nasriy qayirmalarini bir butunlikda, shakliy ifodaviylikni mazmuniy mohiyatga bog‘lashni birinchi o‘ringa chiqarib tahlil etamiz. Avvalo, shoirning qayirmalaridagi individual shakliy izlanish samarasini, lirik janrga xos belgilarni, hikmat, badiiyat va falsafiylikning qorishiqqligini, xalqona naql, nasihat ruhining ustuvorligini, ikki qarama-qarshi qutbli kompozitsiyaga ega ekanligini, she‘riy va nasriy qayirmalarni bir umumiy nuqtaga birlashtiruvchi masal janriga xos mikro sujetni, kinoyaviylikni, latifago‘ylikni, obrazlar rang-barangligini va polifonik xarakterni yoritish o‘rinli hisoblanadi.

Har qanday badiiy asarning “artefakti”, ya’ni moddiy asosi matndan tashkil topadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Azim Suyun qayirmalaridagi “*Ey do‘st*” nidosi muayyan qoliplovchi takror bo‘libgina qolmay, muhim poetik funksiyani bajaradi. Murojaat ottenkasiga ega tashqi vosita haqida adabiyotshunos Qozoqboy Yo‘ldoshev shunday mulohaza bildirgan: “*Ey do‘st*” undalmasi shunchaki shakliy originallik maqsadida qo‘llangan xitob emas, balki har bir she‘rda aks etgan tuyg‘uning zalvorini, fikrning salmog‘ini oshirishga yo‘naltirilgan poetik unsurdir” [3; 381]. Demak, bu poetik unurning qayirma matnida alohida funksiyasi mavjud. U asar

mazmunidan kelib chiqib, turli ma'no va ohanglarni ifoda etishi mumkin. Jumladan, qayirmalarni o'qir ekansiz, ulardagi "*Ey do'st*" undalmasi ayrim o'rinlarda zavqni, ba'zan afsusni, ba'zida alamni, gohida Yaratganga murojaati, goho do'stga nasihati va chorlovi, goh esa da'vatni anglatganligining guvohi bo'lasiz" [5; 331].

Azim Suyunning qayirmalari artefaktida ham o'ziga xosliklar mavjudki, ular o'qirmanda o'zgacha qiziqishni uyg'otishi tabiiy. Masalan, Azim Suyunning 1077 ta she'riy qayirmasining barchasida "*Ey do'st*" undalmasi janrning tashqi ko'rsatgichi, adabiyotshunos Dilmurod Quronov ta'biri bilan aytganda, "*ramka unsuri*" vazifasini bajargan [6; 224]. Shuningdek, bu undalmali murojaat genezisi turkiy tillarning vokativ kelishiga aloqadorlikka ega.

Adabiyotshunoslikdan ma'lumki, *sarlavha, epigraf, she'riy asarning ilk va so'nggi misralari* ramka unsurlari hisoblanadi. Azim Suyunning she'riy qayirmalaridagi "*Ey do'st*" undalmasi ham ramka unsuri hisoblanadi va u orqali she'riy qayirma janrining muhim shakliy elementini aniqlashtirish mumkin. Bu ramka unsurining paydo bo'lishi, albatta, shoirning shakliy-uslubiy izlanishlari samarasi sanaladi. Shoir kitobxonga 1077 marta "*Ey do'st*" deb murojaat qilar ekan, biror millat, xalq yoki muayyan jins vakilini alohidalamaydi, bu hayqiriq go'yo butun bashariyatga murojaatday taassurot qoldiradi. Ayni shu xususiyati bilan umuminsoniy muammolarni yoritishga bel bog'laganini namoyon qiladi. Bunda shoirning ijodiy barkamolligi, o'ziga xos balog'ati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, negaki har qanday ijodkor mavzudan mavzuga o'tar ekan shoir sifatidagi ijodiy intellektual kompetensiyalarini shakllantira borib, ijodining eng baland pallasidagi xalqaro ahamiyatdagi masalalarga urg'u bera boshlaydi.

Azim Suyun ijodidagi "*Ey do'st*" undalmasining genezisi mumtoz adabiyotimizdagi "*Nido*" she'riy san'atiga borib tutashadi. Chunki Atoyining "*ey do'st*" radifli g'azalida, Alisher Navoiyning fardlarida, shuningdek, g'azallaridagi shoh baytlarda "*Olam ahli*", "*Ey sabo*", "*Yo rab*", "*Ey ko'ngil*",

“*Ey gul*”, “*Soqiyo*” kabi undalmali nidolar borki, ular she’rxonni bir muddat fikrini jamlashga, diqqatini ko’tarilgan muammoga yo’naltirishga xizmat qiladi. Demak, Azim Suyun qayirmalarida bu san’atdan janr ko’rsatgichi darajasida foydalanib, mumtoz an’analarni zamonaviy lirikada qayta qo’llaydi va o’y-fikr, his-tuyg’u, kechinmalarining yo’naltirilgan obyektini konkretlashtiradi. Bu she’riy san’at shoir qalbidagi his-tuyg’u va kechinmalarni, iztiroblarini, donishmandlikka yo’g’rilgan pand-nasihat, hikmat falsafasini hayajonli, ochiq va ta’sirli tasvirlab berishga xizmat qilgan. Masalan, shoirning quyidagi qayirmasi Alisher Navoiyning “*Olam ahli, biligizkim, ish emas dushmanlik // Yor o’ling bir-biring’izgakim, erur yorlig’ ish*” baytidan asrlar osha hayratlangandek taassurot qoldiradi:

Ey do’st!

Bir-biriga urar barq,

Mug’ambir G’arb, do’lvor Sharq.

Hayrona Kurrayi Arz,

Bag’ri ilma-teshik darz [3; 191].

Ko’rinadiki, yuqorida qayd etilgan Hazrat Navoiyning shoh baytida ko’tarilgan muammoda butun olam ahliga murojaat qilinib, “*yorlig’*” va “*dushmanlig’*”, ya’ni do’stlik va dushmanlikning lirik ko’lamdagi didaktik ifodasi aks etgan. Azim Suyun qayirmasidagi “*Ey do’st*” undalmasi ham butun bashariyatga qaratilgan. Unda metonomik modelda qisqartirilib, mug’ambir G’arb va do’lvor, ya’ni sodda Sharq xalqining bir-biriga barq urishi, ya’ni chaqin chaqishi kabi geopolitik keskinlashuvidan Kurrayi Arzning bag’ri ilma-teshik bo’layotganligi tashxis (*Kurrayi Arzning hayratlanishi*), metafora (*Kurrayi Arzning bag’ri, bag’ri ilma-teshikligi*) kabi badiiy tasvir vositalari bilan bayon qilingan. Mazkur qayirma nafaqat undalmali nido pafosi bilan, balki dunyo ahlini ezgulikka chorlagan hayqiriqli g’oyaviy-badiiy motivi, badiiy tasvir vositalari bilan ham mumtoz adabiyotimizdagi monumental baytlarga

o'xshaydi. She'ning kichik hajmi o'qirmanga katta o'lchamdagi fikrlash ehtiyojini beradi. Negaki aynan bu qayirmaning mazmunini anglash uchun she'rxon qariyb ikki asrlik Sharq va G'arbning tarixiy munosabatlarini tafakkurida qayta tiriltiradi va beixtiyor lirik qahramon(shoir)ning sherigiga aylanadi. Bu esa "ijodkor tomonidan she'rda hamma narsa aytib qo'yilmasa, o'qirman estetik iste'molchi emas, balki ma'lum darajada shoirning ijodiy sherigi maqomiga ko'tarilishini ko'rsatadi" [3; 434].

Shuni alohida ta'kidlash joizki, muayyan she'riy janrlarga individual tarzda qisman o'zgartirish kiritish mumtoz adabiyotimizda ham uchraydi. Masalan, Alisher Navoiyning qit'alariga sarlavhalar qo'yilishi yoki muztazod janridagi orttirilgan yarim misralikni ikki bor takrorlab "*mukammal mustazod*" yaratgan Ogahiy ijodidagi individualliklar fikrimizga misol bo'la oladi. Bundan shunday xulosa keladiki, Azim Suyun Sharq adabiyotidagi falsafiy ko'lamdagi fard, shoh bayt, to'rtlik, hikmat va ruboiylarga individual uslubidan kelib chiqib, qisman o'zgartirish kiritgan. Natijada qayirma janriga xos shakliyl qolip vujudga kelgan.

Shoirning she'riy qayirmalarida to'rtlik, ruboiy, hikmat janrlariga xos bo'lgan, asosiy shakliyl belgi qat'iy hajmdaligidir, ya'ni ular "*Ey do'st*" undalmasidan tashqari to'rt misradan iborat. Qofiyalanishida *a, a, b, a* qolipi yetakchilik qilsa-da, bu qolip qat'iy takrorlanmaydi. Ayrim o'rinlarda poetik urg'u, qofiya va inversion struktura talabi bilan *a, a, a, b; a, a, a, a; a, b, a, b; a, b, v, b; a, a, b, b* yoki *a, b, b, a* tarzida qofiyalanish strukturalari ham uchray turadi. Ularning vaznida barmoq tizimining $6+5=11$ tarzidagi turoq va turkumlanish yetakchilik qiladi.

Bu shakliyl belgilardan faqat to'rt misra va uning ustiga orttirilgan undalmagina doimiy takrorlanishga ega, qolganlari XX asr o'zbek she'riyatiga nisbatan qo'llaniladigan "universal" lirikaga xos belgilar deb baholash mumkin. Qolaversa, XX asr nihoyasi va XXI asr muqadimasida o'zbek she'riyatida janr qaydi kam uchraydigan hodisaga aylanib ulgurdi. "Lirik asarlarda janr qaydi nisbatan kam uchraydi. Janr qayd etilgan she'rlarga e'tibor qilinsa, ularda

qaysidir ma'nodagi odatdan tashqarilik borligini ko'rish qiyin emas. Deylik, milliy she'riyatimiz uchun noodatiy janrda yozilgan she'rlar sarlavhasi ostida *elegiya, epitafiya, epigramma, rondo, rondel, xokku, tanka* kabi qaydlarni ko'p uchratamiz. Ba'zan esa she'r janrini manzara (*peyzaj*), *noktyurn, natyurmort, triptix, avtoportret* kabi rassomlik san'ati janrlari nomi bilan qayd etadilar. Har ikki holda ham qaydlar o'quvchi qiziqishini kuchaytiruvchi omil: bu atamalar ma'nosini bilmaganlar bilib olish niyatida, bilganlar esa da'voning qay darajada asoslilikini tekshirish uchun diqqat qiladilar. Ya'ni keyingilarda estetik kutuv konkretlashish hisobiga yanada kuchayadi. Ayrim hollarda shoir o'zi yaratgan lirik she'rni tamom yangicha, o'ziga xos hodisa o'laroq anglaydi, uni ta'kidlash ehtiyojini his qiladi. Shu tariqa "*qayirma*" (A.Suyun), "*ignabarg*" , "*uchchanoq*" (A.Obidjon), "*firqa*" (F.Afro'z) kabi janr nomlari qayd etiladi. Albatta, bu shoir qayd etgan zahoti yangi janr paydo bo'lib qoladi degani emas, biroq shu orqali o'quvchi va mutaxassislar diqqatining jalb etilishi ham shubhasiz" [6; 222].

Demak, Azim Suyun qayirmalaridagi alohida shakliy o'ziga xoslikni shoirning individual tarzda yozgan asarining yangichaligini ta'kidlash maqsadida qilingan urinish hisoblash ham mumkin. Ammo bu o'ziga xoslik qayirmani alohida janr hisoblashga yetarlicha omil bo'la olmaydi. Chunki qayirma janr darajasiga ko'tarilishi uchun birgina shoir ijodida akslanishi yetarlicha emas, u shoirning zamondoshlari va keyingi avlod vakillari ijodida "*Ey do'st*" tarzida yoki "*Ey yor*", "*Ey Vatan*", "*Ey jon*" kabi undalmali orttirilgan shakllarga ega to'rtliklar sifatida takrorlansagina, janr sifatidagi muayyan maqomiga ega bo'lishi mumkin. Aks holda, individual ijodiy eksperiment tarzidagi maydonga kelgan janrlar sifatida tor doirada ilmiy baholanaveradi. Buni adabiyotshunos Dilmurod Quronovning fikrlari bilan dalillash mumkin: "She'riyat taraqqiyotining hozirgi "poetik qolipi u qadar sezilmaydigan", ijodiy izlanishlar va yangilanish jarayonlari g'oyat shiddatli va tig'iz kechib turgan bosqichida lirik asarlarni janrlarga ajratish g'oyat murakkab muammoga aylangan. Hozirgi she'riyatda janrlarning nihoyatda xilma-xil

ekanligi ularni o'rganishda tasniflashdan nariga o'tish amrimaholdek taassurot qoldiradi. Zero, bugungi she'riyatda mumtoz she'riyatimizda faol ishlatilgan ayrim janrlar (*g'azal, ruboiy, qasida va b.*) ham, xorijiy adabiyotlardan o'zlashgan turli she'riy shakllar (*sonet, rondo, tanka, xokku va b.*) ham, goh esa xalq og'zaki ijodiga xos lirik janrlar (*yor-yor, aytishuv, alla kabi*) ham qo'llanaveradi. Buning ustiga, adabiyotshunoslik faqat hozirgi adabiyotni o'rganish bilan cheklanmaydi, u, ayniqsa, nazariy masalalarni o'rganish va xulosalar chiqarish jarayonida ham o'tmish adabiyoti, ham umuman jahon adabiyoti materialiga tayanadi.

Azim Suyun qayirmalarining asosiy belgilaridan biri, ulardagi xalqona naql, nasihat ruhining ustunligi bilan belgilanadi. Qayirmalardagi xalqonalik folklor adabiyoti bilan, didaktik mazmun Sharq mumtoz she'riyati bilan aloqadorlikda shakllangan. O'zbekiston qahramoni Abdulla Oripov Azim Suyun qayirmalari haqida shunday fikr bildirgan: "Bu qayirmalar Sharq mumtoz she'riyati ummonidan "suv ichgani", ya'ni Umar Xayyom, Sa'diy She'roziy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Bobur kabi ulug' donishmandlarimiz asarlaridagi donolik, teranlik, ixchamlik, lo'ndalik kabi fazilatlariga eshligi, ayni paytda, eng qadimiy davrlarda tog'-toshlarga o'yib yozilgan bitiklardek aniqligi bilangina emas, balki shakldagi yangiligi bilan ham e'tiborga loyiqdir" [3; 3]. Shoir ta'kidlagan jihatlar, xususan, orttirilgan "Ey do'st" undalmasidan tashqari quloqqa oson singadigan ota-bobolarimizning qadim nasihatlarini ohangi bordek tuyuladi:

Ey do'st!

Bugunga bug'doyim bor, ertaga Xudoyim bor,

Xudoyimga har kuni dilimda duoyim bor.

Mol-u mulk deb erta-kunduz chopmadim,

Chopganlar holing ko'rgan dunyoyim bor [3;126].

Qanoatli bo‘lishga undovchi mazkur qayirma pand-nasihat ruhining ustunligi bilan Hazrat Navoiy qit’alariga o‘xshaydi. Birinchi misraning o‘zida ikkinchi o‘rinda “*bug‘doyim*” va “*Xudoyim*” so‘zlarining ichki qofiya – sa’jni hosil qilishi xalqona ohang tarovatini ta’minlagan. Ikkinchi misrada ham “*Xudoyim*” va “*duoyim*” so‘zlari ichki qofiyani shakllantirgan. Shu orqali xalqona naqlning lirik prologi, aniqrog‘i, qanoatlilik haqidagi qo‘yilgan muammo yuzaga chiqqan. Qolgan misralarda bu muammoning antitezisi (*mol-u mulk deb yugurish*) va sintezi (*dunyo moli ortidan quvganlarning achinarli ahvoli*) ustamonlik bilan lirik ko‘lamda bayon qilingan. Misralarning semantik tarkibi va tuzilishi ruboiy janridagi *tezis*, *antitezis* va *sintez* ko‘rinishidagi kompozitsion qoliplanishga mos keladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Azim Suyun she’riyatidagi qayirmalar shoirning o‘ziga xos poetik tafakkuri va badiiy izlanishlari natijasida vujudga kelgan. “Qayirma”larda Sharq mumtoz adabiyotiga xos hikmatgo‘ylik an’analari zamonaviy badiiy-estetik tamoyillar bilan uyg‘un tarzda birlashganligi kuzatildi. Qayirmalarning mazmun va shaklga bog‘liq poetik jihatlari Azim Suyun ijodiga xos o‘ziga xoslikni ko‘rsatib, o‘zbek she’riyati rivojida katta badiiy-estetik ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot qayirma poetikasini kelgusida yanada chuqur tahlil qilish uchun ilmiy zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Суюн, Азим. Ўзлик. – Тошкент: Шарқ, 1999. – 443 б.
2. Суюн, Азим. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 2018. – 448 б.
3. Суюн, Азим. Эй дўст ёхуд Азимнома. – Тошкент: Akademnashr, 2018. – 448 б.
4. Суюн, Азим. Танланган асарлар. 5-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2025. – 148 б.
5. Орипов А. Қайирма – мустақил жанр //Тафаккур, 2003 йил. –№3.
6. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti. 2018.

7. Tosheva D. Azim Suyun “Qayirma”larining janriy xususiyatlari.
Экономика и социум. 2023-yil. 7-son. 331-bet.
8. Mamiraliyev Q. Istiqlol davri o‘zbek she’riyatida janrlar modifikatsiyasi.
– Toshkent: Anorbooks, 2024. – 208 b.